



№ 1/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi



ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 1 2026 fevral

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 8-maydagi
№354-sonli qarori bilan
Pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili: 170100 Andijon shahri,
"Do'stlik" ko'chasi, 4uy, 216-xona.
Electron manzil: info@adpi.uz
Telegram: ADPI_Ilmiy_xabarnomasi
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

1/1

BOSH MUHARRIR:
B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
Mas'ul muharrir:
B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi
I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor
Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor
A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor
B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor
A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor
M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor
Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.A. Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor
Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). professor
T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
A.A. Zaparov- texnika fanlari nomzodi, professor
U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor
M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor
L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor
Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent
D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
K.S. Karimov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
M.I. O'rinboev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muharrirlar:
O.Karimov,
U.Malikova,
B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Hasanov Sh.A. Adabiyot fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari talqini	4
Qoraboyev J.B. "Giperbola konseptual semantikasi"ni voqelantiruvchi til birliklarining lingvokognitiv, psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvostilistik tavsifi	8
Umurzaqova N.S. Bo'lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	13
Камалходжаева С.С. Язык как объект лингвистического исследования	16
Абдуллаева А.Э. Современные и передовые педагогические технологии в преподавании иностранных языков	19
Karimov O.T., Mirzayev O.X. Talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan "lumiye" metodi asosida ishlashga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari	23
Jo'rayeva M.A. Kasbiy tayyorgarlikni integrativ yondashuv asosida shakllantirish	29
Ikromov M.X., Abduraimova M.A. Talabalarga muhandislik kompyuter grafikasidan foydalanib o'qitishning mazmuni	33
Ikromov M.X., G'ulomova M.N. Rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanish	37
Mamatisaqova G.A. Farmasevtika ishi yo'nalishida kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirishda xorij tajribasi	41
Mamadaliyev B.K. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish	45
Axmedova D.X. Boshlang'ich ta'limda ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirishning yangi metodlari	48
Kosimova G.M. Yangi pedagogik texnologiyalar vositasida darsliklar bilan ishlash bo'yicha o'quv jarayonini loyihalash	53
Xoldarova M.Q., Tairova M.B. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida nutq o'stirish darslari orqali "soft skills" ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	57
Abdurahmonova H.V. Saniye Benjik Kanganing o'yin pedagogikasi va rivojlantiruvchi muhit haqidagi qarashlari	61
Xurshidbekov A.M. Erkin kurashchilarda tezlik sifatining shakllanishi va rivojlanishining uslubiy asoslari	67
Olimjonov O.O. Integratsiyalashgan tarbiya: talabalarda jismoniy salohiyat va ma'naviy immunitetni shakllantirish usullari	71
Usarov M.M. Talabalar estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy xalq o'yinlaridan foydalanining dolzarbligi	75
Karimova F.Z. Integrativ yondashuv asosida bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy -metodologik asoslari	80
Xakimov Sh.T. Yosh belbog'li kurashchilarga texnik usullarni o'rgatish bosqichlari	83
O'rinboyev L.X. Farmakodinamikaning fan sifatida farmakologiyada tutgan o'rni	89
Sobirjonov I.T. Farmakokopetentlik tushunchasi va uning asosiy komponentlari	95
No'monova G.D. Klinik farmakologiya fani o'qitish tizimining amalyotdagi holatini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish	100
Xodjayev M.K. Oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlashning pedagogik aspektlari	105
Kodirov M.A., Otashev D.R. Basketbolda sportchilarni jaroxatlanishni oldini olish va tiklash usullari	110
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligini darsdan tashqari mashg'ulotlar asosida rivojlantirishning pedagogik modeli	114
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish metodikasi	118
Mullajonov Sh.I. Sport turlarining tavsifi va sportchi faoliyatida ruhiy tayyorgarlikning roli	124
Otashev D.R., Otasheva O.H. O'smirlarnigh psixologik munosabatlari shakllantirishda jismoniy tarbiyani o'rni	129

belgilaydi, texnik va taktik ustunlikni ta'minlaydi hamda musobaqa sharoitida samarali harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tezlikni rivojlantirish jarayonida umumrivojlantiruvchi, maxsus va musobaqaga yaqin sharoitdagi mashqlardan kompleks foydalanish yuqori samaradorlikka olib keladi. Qulay, murakkab, oddiy va tasodifiy sharoit usullarini tizimli qo'llash kurashchilarning reaksiya tezligini, texnik harakatlar bajarish tezligini va tezlik chidamliligini sezilarli darajada oshiradi [4].

Mashg'ulot jarayonida tezlik sifatini rivojlantirish kuch, egiluvchanlik, koordinatsiya kabi boshqa jismoniy sifatlar bilan uzviy bog'liq holda olib borilishi lozim. Shuningdek, mashqlar yuklamasi bosqichma-bosqich oshirib borilishi, musobaqaga yaqin bosqichlarda esa maxsus va tezlik-kuch yo'nalishidagi mashqlarga ustuvorlik berilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, erkin kurashchilarda musobaqa jarayoniga qadar tezlik sifatini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy asoslangan uslubiy tizimini qo'llash sportchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini kengaytiradi, musobaqa samaradorligini oshiradi va yuqori sport natijalariga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi PQ-336-son "Sport kurashlarining Olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. www.Lex.uz.

2. Абдиев А.Н. Борьба организация востановительного тренировочного процесса в предсоревновательном этапе. Ўзбекистон жисмоний тарбия ва спорт илмий-амалий журналы, 2020. №2, 48-б.

3. Бакиев З.А. Индивидуализация технико - тактической подготовки борцов, на основе автоматизированного анализа соревновательной деятельности /кан...пед...наук: дисс.автореф., Ташкент. УзГИФК.

4. Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik. Toshkent. "Sano-standart", 2015.

UO'K: 766.3(585.141)

INTEGRATSIYALASHGAN TARBIYA: TALABALARDA JISMONIY SALOHİYAT VA MA'NAVİY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

<https://zenodo.org/records/18754685>

Olimjonov Omadbek Odiljon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada integratsiyalashgan tarbiya jarayonida talabalar jismoniy salohiyatini rivojlantirish hamda ma'naviy immunitetini shakllantirishning samarali usullari yoritilgan. Integratsiyalashgan yondashuv orqali ta'lim va tarbiya jarayonida jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishning o'zaro bog'liqligi asoslanadi. Talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni oshirish, sport va madaniy faoliyatni uyg'unlashtirish orqali ularning irodaviy, ruhiy va ma'naviy barqarorligini mustahkamlash masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ma'naviy immunitetni kuchaytirishda milliy qadriyatlar, ijtimoiy faollik, ijobiy psixologik muhit va raqamli madaniyat omillarining o'rni ko'rsatilgan. Tadqiqotda integratsiyalashgan tarbiya modeli asosida talabalarda nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki ruhiy muvozanat, o'zini anglash, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish yo'llari ilmiy asosda yoritiladi. Natijada, ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan tarbiya tizimini takomillashtirish talabalarning sog'lom, faol va ma'naviy yetuk shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qilishi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *integratsiyalashgan tarbiya, jismoniy salohiyat, ma'naviy immunitet, sog'lom turmush tarzi, raqamli madaniyat, ijtimoiy faollik, milliy qadriyatlar, talaba shaxsining kamoloti.*

Аннотация. *В статье рассматриваются эффективные методы формирования физического потенциала и духовного иммунитета студентов в процессе интегрированного*

воспитания. Обосновывается взаимосвязь физического, интеллектуального, нравственного и эстетического развития личности в рамках интегративного подхода к обучению и воспитанию. Анализируются вопросы формирования здорового образа жизни, повышения физической активности, гармоничного сочетания спортивной и культурной деятельности, способствующих укреплению волевых, психологических и духовных качеств студентов. Особое внимание уделено роли национальных ценностей, социальной активности, позитивной психологической среды и цифровой культуры в укреплении духовного иммунитета. Научно обоснованы пути формирования у студентов не только физической готовности, но и психологического равновесия, самосознания, социальной ответственности и гражданской позиции. Сделан вывод, что совершенствование системы интегрированного воспитания в учебных заведениях способствует формированию здоровой, активной и духовно зрелой личности.

Ключевые слова: интегрированное воспитание, физический потенциал, духовный иммунитет, здоровый образ жизни, цифровая культура, социальная активность, национальные ценности, развитие личности студента.

Abstract. This article analyzes effective methods for developing students' physical potential and spiritual immunity through integrated education. The paper substantiates the interconnection between physical, intellectual, moral, and aesthetic development within an integrative approach to teaching and upbringing. It analyzes ways to promote a healthy lifestyle, increase physical activity, and harmonize sports and cultural engagement to strengthen students' willpower, psychological stability, and spiritual resilience. The role of national values, social engagement, a positive psychological environment, and digital culture in fostering spiritual immunity is also discussed. The study presents scientifically grounded approaches for shaping not only students' physical readiness but also their psychological balance, self-awareness, social responsibility, and civic identity. The article concludes that improving the system of integrated education in higher institutions contributes to the development of healthy, active, and spiritually mature individuals.

Keywords: integrated education, physical potential, spiritual immunity, healthy lifestyle, digital culture, social activity, national values, student personality development.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish masalasi ta'lim mazmunining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi jamiyat sharoitida yosh avloddan jismoniy jihatdan sog'lom bo'lish, ruhiy barqarorlikni saqlash va ma'naviy qadriyatlarga tayangan holda mustaqil qaror qabul qila olish kabi muhim kompetensiyalar talab etilmoqda [1]. Shu bois ta'lim va tarbiya jarayonlarini yagona pedagogik tizimda olib borishga asoslangan integratsiyalashgan yondashuv alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Integratsiyalashgan tarbiya talabalarning jismoniy salohiyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning ma'naviy immunitetini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, jismoniy tarbiya, sport, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy faoliyatni o'zaro uyg'un holda tashkil etishni nazarda tutadi. Tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, jismoniy faollikning ma'naviy tarbiya bilan uzviy bog'liq holda tashkil etilishi talaba shaxsida iroda, mas'uliyat, psixologik barqarorlik hamda ijtimoiy faollik kabi sifatlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [2].

Integratsiyalashgan tarbiya talaba shaxsining jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishini o'zaro uyg'unlikda ta'minlashni nazarda tutadi. Bu yondashuv jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, sport faoliyati, madaniy-ma'rifiy tadbirlar va milliy qadriyatlarni yagona pedagogik tizimga birlashtirish orqali amalga oshiriladi. Natijada, talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni muntazam odatga aylantirish, iroda, qat'iyat, psixologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, raqamli madaniyatning pedagogik vosita sifatida qo'llanilishi talabalarning axborot ta'sirlariga tanqidiy munosabatini shakllantirishga yordam beradi.

Pedagogik amaliyot va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarni ma'naviy jihatdan barqaror va jismonan sog'lom shakllantirish uchun individual metodlar yetarli emas; ular yagona tizimli, integratsiyalashgan pedagogik model asosida rivojlantirilishi lozim. Bu

yondashuv talabalarning nafaqat jismoniy tayyorgarligini oshirish, balki ularning axloqiy-ijtimoiy pozitsiyasini, tanqidiy fikrlash qobiliyatini, o'zini anglash darajasini va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Shu jihatdan integratsiyalashgan tarbiya modeli nafaqat pedagogik nazariyani boyitadi, balki zamonaviy ta'lim muassasalarida amaliy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qiladi.

Bundan tashqari, zamonaviy yoshlarning rivojlanishida milliy qadriyatlar, ijtimoiy faollik va axborot-madaniy muhit bilan uzviy bog'liqlik alohida ahamiyat kasb etadi. Talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishda integratsiyalashgan tarbiya modeli uning jismoniy salohiyati bilan bir qatorda, ma'naviy immunitetini mustahkamlash, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot mavzusi nafaqat ilmiy, balki amaliy pedagogik ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Pedagogika fanida integratsiyalashgan tarbiya masalasi shaxs kamolotini ta'minlashning muhim omili sifatida talqin etilib, unda jismoniy va ma'naviy rivojlanishning o'zaro bog'liqligi alohida ta'kidlanadi. Jumladan, K. Hoshimov va S. Nishonova o'z ilmiy tadqiqotlarida tarbiya jarayonining yaxlitligi shaxsning ijtimoiylashuvi va ma'naviy yetukligida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini asoslab berganlar [3]. Ularning qarashlariga ko'ra, jismoniy tarbiya ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan uyg'un holda olib borilgandagina barqaror tarbiyaviy natijalarga erishish mumkin.

Shuningdek, A. Zunnunov va Sh. Sharipovlarning ilmiy ishlarida jismoniy tarbiya va sport faoliyatining shaxs ruhiy barqarorligi, irodaviy sifatlari hamda ijtimoiy faolligini rivojlantirishdagi o'rni keng yoritilgan [4]. Mualliflar jismoniy faollikni talaba shaxsida intizom, mas'uliyat va o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida baholaydilar. Bu yondashuv integratsiyalashgan tarbiyaning ilmiy asoslanganligini ko'rsatadi.

Shaxsiy tahlil shuni ko'rsatadiki, mazkur olimlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy g'oyalar integratsiyalashgan tarbiyaning umumiy nazariy asoslarini belgilab bergan bo'lsa-da, talabalar jismoniy salohiyati va ma'naviy immunitetini birgalikda rivojlantirish masalasi hali yetarli darajada tizimli va kompleks tarzda tadqiq etilmagan. Ayniqsa, jismoniy tarbiya, sport, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat hamda raqamli madaniyatni yagona pedagogik mexanizm sifatida uyg'unlashtirish masalasi chuqur ilmiy-amaliy izlanishlarni talab etadi.

Muallifning fikricha, integratsiyalashgan tarbiya modeli talabalarda nafaqat jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish, balki ularning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, ijtimoiy mas'uliyatini oshirish va barqaror fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Shu jihatdan mazkur tadqiqot integratsiyalashgan tarbiya asosida talaba shaxsini har tomonlama kamol toptirishning ilmiy-pedagogik mexanizmlarini asoslashga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

So'nggi yillarda integratsiyalashgan tarbiya va sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda jismoniy tarbiya ta'limning tarbiyaviy komponenti sifatida talqin qilinmoqda. Xususan, N. Sayidahmedov o'z ilmiy ishlarida ta'lim-tarbiya jarayonining integratsiyalashuvi shaxsda ijtimoiy faollik, mustaqil fikrlash va mas'uliyat hissini rivojlantirishini asoslab bergan [5]. Muallifning fikricha, jismoniy va ma'naviy tarbiya bir-birini to'ldiruvchi yagona jarayon sifatida qaralishi lozim.

Shuningdek, B. To'xliyev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ma'naviy tarbiya va milliy qadriyatlarning yoshlar ongini shakllantirishdagi o'rni chuqur tahlil qilingan [6]. Olim ma'naviy immunitetni shaxsning axborot xurujlariga nisbatan barqarorligini ta'minlovchi muhim sifat

sifatida baholab, uni shakllantirishda tarbiyaviy faoliyatning uzluksizligi va tizimlilikini ta'kidlaydi. Bu yondashuv integratsiyalashgan tarbiya modelining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Raqamli muhit sharoitida talaba yoshlarning ma'naviy rivojlanishi masalalari A. Abduqodirov va U. Begimqulovlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan [7]. Ularning tadqiqotlarida raqamli madaniyatning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilinib, yoshlarning axborotdan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish ma'naviy immunitetni mustahkamlash omili sifatida baholanadi. Mualliflarning fikricha, raqamli madaniyat elementlarini tarbiya jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy pedagogik ehtiyojdan kelib chiqadi.

Bundan ko'rinadiki, yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar integratsiyalashgan tarbiya, jismoniy rivojlanish va ma'naviy immunitet masalalarini turli jihatlardan yoritgan bo'lsa-da, ushbu yo'nalishlarni yagona pedagogik model asosida birlashtirish masalasi yetarli darajada kompleks tarzda o'rganilmagan. Muallifning fikricha, jismoniy tarbiya, sport, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat va raqamli madaniyatni o'zaro uyg'unlashtirish orqali talabalarning jismoniy salohiyati bilan bir qatorda ularning barqaror ma'naviy pozitsiyasini shakllantirish imkoniyati kengayadi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot mavjud ilmiy qarashlarni tizimlashtirish va ularni amaliyot bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Mazkur tadqiqot integratsiyalashgan tarbiya jarayonida talabalarda jismoniy salohiyat va ma'naviy immunitetni shakllantirish masalasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganishga yo'naltirilgan. Tadqiqot metodologik asosi shaxsga yo'naltirilgan, tizimli, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlarga tayanadi. Ushbu yondashuvlar talaba shaxsining jismoniy, ma'naviy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishini o'zaro uzviy bog'liq jarayon sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik jarayonni yaxlit tizim sifatida o'rganishga qaratilgan tizimli yondashuv asos qilib olindi. Bu yondashuv orqali jismoniy tarbiya, sport, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy faoliyat turlari o'zaro integratsiyalashgan holda ko'rib chiqildi. Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabalarning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olish orqali ularning jismoniy salohiyati va ma'naviy immunitetini rivojlantirishni ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarda sog'lom turmush tarziga oid bilim, ko'nikma va malakalar, shuningdek, ijtimoiy mas'uliyat, o'zini boshqarish va tanqidiy fikrlash kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishga e'tibor qaratildi. Integrativ yondashuv esa jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, milliy qadriyatlar va raqamli madaniyat elementlari bilan uyg'unlashtirish orqali tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirishga imkon yaratdi.

Tadqiqotda umumilmiy va maxsus pedagogik metodlardan kompleks foydalanildi. Xususan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnoma, tajriba-sinov ishlari hamda olingan natijalarni qiyosiy va tizimli tahlil qilish metodlari qo'llanildi. Tajriba-sinov jarayonida integratsiyalashgan tarbiya modeli asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning talabalarning jismoniy faolligi, ruhiy barqarorligi va ma'naviy munosabatlariga ta'siri o'rganildi.

Olingan natijalarni baholashda sifat va miqdoriy tahlil usullaridan foydalanilib, talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi, sog'lom turmush tarziga munosabati va ma'naviy qadriyatlar asosidagi xulq-atvoridagi o'zgarishlar aniqlashtirildi. Tadqiqot metodologiyasi integratsiyalashgan tarbiyaning pedagogik imkoniyatlarini ochib berishga, talabalarda jismoniy salohiyat va ma'naviy immunitetni shakllantirishning samarali yo'llarini asoslashga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari integratsiyalashgan tarbiya yondashuvi talabalarda jismoniy salohiyat va ma'naviy immunitetni shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Ta'lim va tarbiya jarayonini jismoniy tarbiya, sport, ma'naviy-ma'rifiy hamda ijtimoiy faoliyat bilan uzviy integratsiyalashgan holda tashkil etish talaba shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, jismoniy faollikni ma'naviy tarbiya bilan uyg'unlashtirish talabalar orasida sog'lom turmush tarziga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi, ularning ruhiy barqarorligi, irodaviy sifatlari va ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytiradi. Integratsiyalashgan tarbiya modeli talabalarining faqat jismoniy tayyorgarligini oshirish bilangina cheklanmay, balki ularning o'zini anglash darajasi, ma'naviy qadriyatlarga sodiqligi va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, globallashuv va raqamli axborot muhiti sharoitida ma'naviy immunitetni shakllantirish zarurati yanada dolzarblashgani aniqlandi. Integratsiyalashgan tarbiya orqali milliy qadriyatlar, ijtimoiy faollik va sog'lom psixologik muhitni ta'minlash talabalarining turli salbiy axborot ta'sirlariga nisbatan barqaror pozitsiyani egallashiga yordam beradi. Bu esa ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotda ongli, mas'uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan tarbiya tizimini takomillashtirish talabalarining jismoniy salohiyati va ma'naviy immunitetini rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmi hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari ta'lim-tarbiya jarayonini yanada samarali tashkil etish, sog'lom, faol va ma'naviy yetuk shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoshimov K., Nishonova S. Integratsiyalashgan tarbiya jarayonida talabaning jismoniy va ma'naviy rivojlanishi. *Pedagogika ilmiy jurnal*, 2021. 3(2), 45–53.
2. Zunnunov A.A., Sharipov Sh.T. Jismoniy tarbiya va sport faoliyati orqali talaba shaxsining psixologik barqarorligini shakllantirish. Toshkent: O'zbekiston Fan va ta'lim nashriyoti. 2019.
3. Sayidahmedov N.B. Talabalarda ijtimoiy faollik va integratsiyalashgan tarbiya tamoyillari. *Oliy ta'lim muammolari*, 2022. 4(1), 78–85.
4. To'xliyev B.R. Ma'naviy immunitet nazariyasi va milliy qadriyatlar ta'limi. *Pedagogik nazariya va amaliyot*, 2021. 2(3), 12–20.
5. Abduqodirov A.Q., Begimqulov U.S. Raqamli madaniyat va talabalarining ma'naviy rivojlanishi: pedagogik yondashuvlar. *Ilmiy pedagogika jurnali*, 2020. 5(4), 33–42.
6. Karimov F.M. Talabalarni tarbiyalashning innovatsion usullari: integratsiyaviy yondashuv. *Ta'lim tadqiqotlari*, 2023. 1(5), 10–25.
7. Rustamova G.A. Sog'lom turmush tarzi va yoshlar ma'naviyati: pedagogik omillar. *Ma'naviyat va tarbiya*, 2022. 8(2), 55–63.

UO'K:17.022.1:008(575.1)

TALABALAR ESTETIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY XALQ O'YINLARIDAN FOYDALANING DOLZARBLIGI

<https://zenodo.org/records/18754691>

Usarov Murodjon Mamarasul o'g'li
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalar estetik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda milliy xalq o'yinlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Milliy o'yinlarning estetik did, ijodiy tafakkur, milliy qadriyatlar va madaniy merosga hurmatni shakllantirishdagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, milliy xalq o'yinlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali usullari yoritiladi.

